Loyiha identifikatori: 56135

Maqomi: dastlabki oʻrganish bosqichida, loyiha konsepsiyasining koʻrib chiqilishi kutilmoqda

Joylashuvi

Oʻzbekiston

Iqtisodiyot tarmogʻi

Energetika

Xabarnoma turi

Xususiy

Ekologik toifa

A

Tasdiqlanish sanasi

2026-yil 16-dekabr

Axborotni oshkor qilish sanasi

2026-yil 9-oktabr

Loyiha tavsifi

Qaytarilish navbati boʻyicha ustuvor boʻlgan, 52 million yevrogacha miqdordagi kredit ajratish nazarda tutilmoqda. Moliyalashtirish Barqaror rivojlanish boʻyicha Yevropa jamgʻarmasi plyus doirasidagi Hi-Bar dasturi boʻyicha Yevropa Ittifoqining oldindan mablagʻ ajratilmaydigan qisman kafolatini ham oʻz ichiga oladi. Ushbu mablagʻlar Oʻzbekistonning Buxoro viloyatida joylashgan, quvvati 100 megavatt va energiya saqlash sigʻimi 200 megavatt-soat boʻlgan akkumulyatorli elektr energiyasini saqlash tizimini ishlab chiqish, qurish va ekspluatatsiya qilishni qoʻllab-quvvatlaydi. Qarz oluvchi Oʻzbekistonda aynan shu loyiha uchun tashkil etilgan maxsus maqsadli “Artemisya BESS FE LLC” kompaniyasi boʻladi. Voltalia S.A. loyiha homiysi sifatida ishtirok etadi.

Loyiha maqsadlari

Loyiha natijasida Oʻzbekiston elektr energetika tizimiga quvvati 100 megavatt va energiya saqlash sigʻimi 200 megavatt-soat boʻlgan akkumulyatorli saqlash tizimi qoʻshilishi kutilmoqda. Ushbu tizim elektr tarmogʻiga yordamchi xizmatlar koʻrsatadi va uning

barqarorligini oshiradi. Tarmoq barqarorligi ishlab chiqarish hajmi oʻzgarib turadigan qayta tiklanuvchi energiya manbalarini elektr energetika tizimiga ishonchli ulash uchun juda muhimdir. Loyihaning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi Oʻzbekistonning qayta tiklanuvchi energetika boʻyicha maqsadlariga muvofiq, ushbu sohadagi loyihalarni kengroq joriy etishga yoʻl ochadi.

Oʻtish jarayoniga ta’siri

Oʻtish jarayoniga kutilayotgan ta’sir koʻrsatkichi: 65

Loyihaning oʻtish jarayoniga kutilayotgan ta’siri akkumulyatorli elektr energiyasini saqlash quvvatining ortishi bilan bogʻliq boʻladi. Oʻzbekiston elektr energiyasi ishlab chiqarishda issiqlik elektr stansiyalariga yuqori darajada tayanadi. Saqlash quvvatining ortishi qayta tiklanuvchi energiyani elektr energetika tizimiga kengroq ulash imkonini yaratib, uglerod chiqindilari kam boʻlgan iqtisodiyotga oʻtishni qoʻllab-quvvatlaydi *(yashil yoʻnalish).* Loyiha, shuningdek, Buxoro viloyatida mehnat bozoriga ilk bor kirib kelayotgan yoshlarga moʻljallangan, milliy darajada akkreditatsiyadan oʻtgan yangi oʻquv dasturini joriy etish orqali Oʻzbekistonning qayta tiklanuvchi energetika sohasida inson kapitalini rivojlantirishga koʻmaklashadi *(keng ishtirokni ta’minlash yoʻnalishi).*

Mijoz haqida ma’lumot

“ARTEMISYA BESS FE LLC”

Qarz oluvchi loyihani ishlab chiqish, qurish va ekspluatatsiya qilish maqsadida Oʻzbekistonda yangi tashkil etilgan va roʻyxatdan oʻtkazilgan maxsus maqsadli kompaniyadir. U toʻliq Voltalia kompaniyasiga tegishli. Bosh qarorgohi Fransiyada joylashgan Voltalia qayta tiklanuvchi energiya loyihalarini ishlab chiqish va ekspluatatsiya qilish bilan shugʻullanuvchi xalqaro kompaniya boʻlib, Yevropa, Afrika hamda Shimoliy va Janubiy Amerikada faoliyat yuritadi.

Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki moliyalashtirishi haqida qisqacha ma’lumot

52 000 000,00 yevro

Loyihani moliyalashtirish uchun YTTB tomonidan qarz oluvchiga 52,0 million yevrogacha miqdorda, qaytarilish navbati boʻyicha ustuvor kredit ajratilishi kutilmoqda.

Loyihaning umumiy qiymati

83 000 000,00 yevro

Loyihaning umumiy xarajatlari 83,0 million yevrogacha boʻlishi kutilmoqda.

Bank ishtirokining qoʻshimcha qiymati

Moliyalashtirish tuzilmasi: bank ushbu loyiha uchun mahalliy bozorda mavjud boʻlmagan shartlarda uzoq muddatli moliyalashtirishni taqdim etib, katta qoʻshimcha hissa qoʻshadi.

Xatarlarni kamaytirish: bankning mijoz bilan uzoq yillik hamkorligi mijozga ishonch bagʻishlaydi hamda uning Oʻzbekiston bozoriga kirib borishini qoʻllab-quvvatlaydi. Oʻzbekiston akkumulyatorli elektr energiyasini saqlash tizimlari uchun nisbatan yangi va rivojlanayotgan bozordir.

Siyosat, tarmoq, institutsional yoki tartibga solish sohasidagi oʻzgarishlar:

bank Oʻzbekistonda siyosat masalalari boʻyicha muloqotda faol ishtirok etib, qayta tiklanuvchi energetikani rivojlantirish va uglerod chiqindilarini kamaytirish uchun zarur asoslarni ishlab chiqishni qoʻllab-quvvatlaydi. Loyiha mamlakat energetika tarmogʻi uchun muhim bosqich hisoblanadi. U elektr energetika tizimining moslashuvchanligini oshirish va qayta tiklanuvchi manbalardan energiya ishlab chiqarishning oʻzgaruvchanligi ta’sirini kamaytirish uchun akkumulyatorlarda energiya saqlashni joriy etadi. Shu orqali Oʻzbekistonning yashil iqtisodiyotga oʻtishiga hissa qoʻshadi.

Loyiha gender tengligi boʻyicha qoʻshimcha hissa qoʻshuvchi loyiha sifatida ham belgilangan, chunki mijoz an’anaviy ravishda erkaklar ustun boʻlgan energetika tarmogʻiga ayollarni jalb qilishga qaratilgan targʻibot kampaniyasini qoʻllab-quvvatlaydi.

Ekologik va ijtimoiy masalalar boʻyicha qisqacha ma’lumot

A toifasi (2024-yilgi ekologik va ijtimoiy siyosatga muvofiq). Quvvati 100 megavatt va energiya saqlash sigʻimi 200 megavatt-soat boʻlgan akkumulyatorli elektr energiyasini saqlash tizimi hamda uzunligi 15 kilometr, kuchlanishi 220 kilovolt boʻlgan elektr uzatish liniyasi quvvati 300 megavatt boʻlgan shamol elektr stansiyasi, quvvati 100 megavatt boʻlgan quyosh elektr stansiyasi va qoʻshimcha 55 kilometrlik elektr uzatish liniyasini oʻz ichiga oladigan kengroq dastur tarkibiga kiradi. Saqlash tizimi va 15 kilometrlik liniyani qurish hamda ekspluatatsiya qilish sezilarli ekologik va ijtimoiy ta’sirlarni, jumladan birgalikda yuzaga keladigan kumulativ ta’sirlarni keltirib chiqarishi mumkin. Shu sababli YTTBning 2024-yilgi ekologik va ijtimoiy siyosatiga muvofiq, ekologik va ijtimoiy ta’sirni kompleks baholash jarayoni oʻtkazilgan. Bu jarayon axborotni jamoatchilikka yetkazish va muhokama jarayonlarini ham qamrab olgan. YTTB baholash hujjatlarini ishlab chiqish jarayonini yaqindan kuzatib borgan. Ular tashqi ekologik va ijtimoiy kompleks tekshiruv doirasida maslahatchi tomonidan ham koʻrib chiqilgan. Ekologik va ijtimoiy ta’sirni baholash boʻyicha oshkor etilgan hujjatlar toʻplamiga texnik boʻlmagan qisqacha ma’lumot, ekologik va ijtimoiy harakatlar rejasi, manfaatdor tomonlar bilan oʻzaro hamkorlik rejasi, tirikchilik manbalarini tiklash boʻyicha asosiy tamoyillar hujjati, biologik xilma-xillikni

boshqarish rejasi, biologik xilma-xillik boʻyicha harakatlar rejasi hamda ekologik va ijtimoiy boshqaruv va kuzatib borish rejasi kiritilgan. Ushbu toʻplam bankning axborotdan foydalanish siyosatiga muvofiq, loyiha YTTB Direktorlar kengashida koʻrib chiqilishidan oldin 60 kunlik maslahatlashuv davri uchun 2026-yil 17-avgustda bank va homiyning veb-saytlarida e'lon qilingan. Mazkur hujjatlar toʻplami boʻyicha jamoatchilik bilan maslahatlashuvlar 2026-yilning birinchi choragida boshlangan. Ular doirasida 2026-yil sentabr oyida loyiha joylashgan hududda jamoatchilik eshituvi ham oʻtkazilgan. Loyiha YTTB Direktorlar kengashida koʻrib chiqilishidan oldin manfaatdor tomonlardan kelib tushadigan har qanday fikr-mulohazalar asosida baholash hujjatlari toʻplami yangilanadi. Ta'minot zanjirini kompleks tekshirish hali davom etmoqda. Ekologik va ijtimoiy kompleks tekshiruv yakunlangach, loyiha boʻyicha ushbu qisqacha ma'lumot yangilanadi.

Voltalia bankning amaldagi mijozi boʻlib, bank moliyalashtirgan mavjud loyihalarda talablarga rioya qilish boʻyicha ijobiy tajribaga ega. U loyihani YTTBning ekologik va ijtimoiy talablariga muvofiq amalga oshirish salohiyatiga ham ega. Homiy ishonchli ekologik va ijtimoiy boshqaruv tizimlarini, korporativ darajadagi tegishli siyosatlarni hamda loyihalarni ishlab chiqish boʻyicha standart tartib-taomillarni, jumladan standart boshqaruv rejalarini joriy etgan. Loyiha uchun salomatlik va xavfsizlik, ijtimoiy va ekologik masalalar boʻyicha kompleks boshqaruv tizimi ishlab chiqiladi. Bu tizim pudratchilar va subpudratchilarga ham tatbiq etiladigan maxsus boshqaruv rejalarini oʻz ichiga oladi. Homiy va subpudratchilar tomonidan tegishli xodimlarni ishga jalb qilish ham nazarda tutiladi.

Homiy tegishli mehnat siyosatlari va tartib-taomillarini, jumladan xodimlarning shikoyatlarini koʻrib chiqish mexanizmini joriy etgan. Ular loyiha doirasida ham qoʻllaniladi. Pudratchilarning xodimlari va boshqa ishchilar bilan bogʻliq mehnat masalalarini milliy mehnat qonunchiligi hamda YTTBning ekologik va ijtimoiy masalalar boʻyicha 2-talabiga muvofiq boshqarish uchun loyiha boʻyicha mehnatni boshqarish rejasi ishlab chiqiladi.

Loyiha doirasida ishchilar uchun vaqtinchalik turar joylar quriladi. Ular YTTB va Xalqaro moliya korporatsiyasining ishchilarni turar joy bilan ta'minlash boʻyicha 2009-yilgi qoʻllanmasiga muvofiq boʻladi. Loyiha uchun mehnatni muhofaza qilish hamda mahalliy aholining salomatligi va xavfsizligi boʻyicha maxsus rejalar ishlab chiqiladi. Bunda loyiha hududiga tashqaridan ishchilarning kelishi, oʻta yuqori yoki past haroratlarda ishlash, ishchilar va mahalliy aholi uchun genderga asoslangan zoʻravonlik hamda tazyiq xatarlari, shuningdek yoʻl harakatini boshqarishga alohida e'tibor qaratiladi. Eng yaqin aholi punkti loyiha obyektlaridan 8 kilometr uzoqlikda joylashgani va uning loyiha bilan oʻzaro aloqasi cheklangan boʻlishi kutilayotgani inobatga olinadi. Akkumulyatorli elektr energiyasini saqlash tizimi bilan birga tegishli shamollatish tizimi oʻrnatiladi. Ekspluatatsiya davri uchun yongʻin xavflarini ham qamrab oladigan favqulodda vaziyatlarga javob berish rejasi tayyorlanadi.

Homiy yetkazib beruvchilar uchun xulq-atvor kodeksi va majburiy mehnatni taqiqlovchi siyosatlarni oʻz ichiga olgan ta'minot zanjirini boshqarish tizimini joriy etgan. Ushbu tizim akkumulyatorli elektr energiyasini saqlash tizimining tarkibiy qismlari bilan bogʻliq yetkazib

beruvchi xatarlarini aniqlash, boshqarish va kuzatib borish tartiblarini belgilaydi. Asosiy uskunalarni yetkazib beruvchilar halollik va ishbilarmonlik odobiga rioya etish boʻyicha kompleks tekshiruvdan oʻtadi. Bunda inson huquqlariga oid jihatlar ham koʻrib chiqiladi. Asosiy uskuna yetkazib beruvchilarining korporativ siyosatlarini koʻrib chiqish bilan birga, hozir loyiha doirasidagi ta’minot zanjiri ham dastlabki tekshiruvdan oʻtkazilmoqda. Tekshiruv energiya saqlash tizimini yetkazib beruvchi taqdim etadigan asosiy tarkibiy qismlar bilan bogʻliq ehtimoliy xatarlarni aniqlashga qaratilgan.

Loyiha doirasida havoga chiqariladigan moddalar miqdori cheklangan boʻladi, juda kam oqova suv hosil boʻladi va xavfli materiallardan oz miqdorda foydalaniladi. Pudratchi qurilish boshlanishidan oldin chiqindilar va oqova suvlarni boshqarish rejalarini tayyorlaydi. Ushbu rejalar litsenziyaga ega pudratchilar chiqindilar va oqova suvlarni oʻz vaqtida yigʻib olib ketishini ta’minlaydi. Ularni chiqarish va joylashtirish hududlari dastlabki tarzda aniqlangan. Akkumulyatorli elektr energiyasini saqlash tizimi uchun materiallarni yetkazib beruvchilardan olish, tizimga texnik xizmat koʻrsatish hamda foydalanishdan chiqqan materiallarni utilizatsiya qilish ilgʻor xalqaro amaliyotlarga muvofiq amalga oshiriladi.

Loyihani ishlab chiqish va elektr uzatish liniyasi yoʻnalishini tanlash orqali koʻchirish bilan bogʻliq ta’sirlarni imkon qadar kamaytirishga harakat qilingan. Avval oʻtkazilgan dastlabki roʻyxatga olish natijalariga koʻra, ta’sir elektr ishlab chiqarish obyektlari joylashadigan qishloq xoʻjaligi yerlarida va elektr uzatish liniyasi yoʻlagi boʻylab faqat iqtisodiy koʻchirish bilan cheklanadi. Iqtisodiy koʻchirish tirikchilik manbalarining yoki ulardan foydalanish imkoniyatining yoʻqolishini anglatadi. Tirikchilik manbalarini tiklash boʻyicha asosiy tamoyillar hujjati asosida, YTTBning ekologik va ijtimoiy masalalar boʻyicha 5-talabiga muvofiq, yerlarni olish va tirikchilik manbalarini tiklash rejasi tayyorlanadi. U yer bilan bogʻliq ta’sirlar yuzaga kelishidan oldin amalga oshiriladi. Loyiha ta’siriga uchraydigan barcha shaxslarni, jumladan rasmiy huquqlarga ega shaxslar va norasmiy foydalanuvchilarni, shuningdek himoyaga muhtoj shaxslar yoki guruhlarni aniqlash uchun toʻliq roʻyxatga olish hamda ijtimoiy-iqtisodiy tadqiqot oʻtkaziladi. Shikoyatlarni koʻrib chiqish uchun maxsus mexanizm yaratiladi. Mutaxassislar koʻmagida yerlarni olish va tirikchilik manbalarini tiklash rejasi ijrosini kuzatib borish tizimi ishlab chiqiladi.

2024, 2025 va 2026-yillarda oʻtkazilgan boshlangʻich holatni oʻrganish tadqiqotlari natijasida biologik xilma-xillikning ustuvor elementlari sifatida 29 ta qush turi aniqlangan. Ushbu turlarning 20 tasi uchun elektr uzatish liniyasiga toʻqnashish xatari oʻrtacha darajada deb baholangan. Ekologik va ijtimoiy ta’sirni baholash hujjatlari toʻplami doirasida tayyorlangan biologik xilma-xillikni boshqarish rejasi liniyaning butun uzunligi boʻylab qushlarni elektr uzatish liniyasidan chetlab uchishga yoʻnaltiruvchi moslamalarni oʻrnatish va ularga texnik xizmat koʻrsatishni nazarda tutadi. Ta’sirni kamaytirish choralari amalga oshirilgach, ushbu ustuvor turlarga ta’sir qilish xatari past deb hisoblanadi. Elektr uzatish liniyasi yoʻlagi boʻylab biologik xilma-xillikning ustuvor elementi hisoblangan sudralib yuruvchi tur, Oʻrta Osiyo choʻl toshbaqasi ham aniqlangan. Unga ta’sir qilishning oldi olinadi yoki u boshqa joyga koʻchiriladi. Biologik xilma-xillikni boshqarish rejasi biologik xilma-xillikka ta’sirni kamaytirish, uni boshqarish va kuzatib borish boʻyicha tegishli

choralarni oʻz ichiga oladi. Jumladan, qurilish tugaganidan keyin jonivorlarning nobud boʻlish holatlari kompleks kuzatib boriladi. Qurilish yoki ekspluatatsiya davrida ta’sir yuzaga kelgani haqida ma’lumot kelib tushishi ehtimoli past. Shunday holat qayd etilsa, kuzatuv natijalari mazkur turlar boʻyicha biologik xilma-xillikning sof kamayishiga yoʻl qoʻymaslik uchun qoʻshimcha choralar zarurligini aniqlashga xizmat qiladi. Sudralib yuruvchilarga mansub ushbu ustuvor tur uchun qurilishdan oldingi tadqiqotlar va koʻchirish tartibi ham biologik xilma-xillikni boshqarish rejasiga kiritilgan. Ushbu tur uchun ta’sirni kamaytirish choralaridan keyin qoladigan xatar aniqlanmagan. Bundan tashqari, ta’sirga sezgir bir nechta oʻsimlik turi uchun oʻta muhim yashash muhitlari aniqlangan. Ularga ta’sirni cheklash maqsadida bir nechta loyiha obyektlarining joylashuvi oʻzgartirilgan. Biologik xilma-xillikni boshqarish rejasi qurilishdan oldingi qoʻshimcha tadqiqotlarni oʻz ichiga oladi. Biologik xilma-xillik boʻyicha harakatlar rejasi esa ushbu turlar boʻyicha biologik xilma-xillikning sof oʻsishiga erishish uchun qayta ekish tartibini belgilaydi. Yashash muhitlarining boʻlinib ketishi bilan bogʻliq har qanday ta’sir va uning oʻrnini qoplash choralari haqida YTTBning ekologik va ijtimoiy masalalar boʻyicha 6-talabiga muvofiq har yili bankka hisobot beriladi. Boshqaruv va harakatlar rejalari boʻyicha qoʻshimcha maqsadli maslahatlashuvlar davom etmoqda. Loyiha YTTB Direktorlar kengashida koʻrib chiqilishidan oldin hujjatlar ushbu maslahatlashuvlar natijalariga muvofiq yangilanadi.

Loyiha hududida arxeologik ashyolar aniqlanmagan. Qurilish bosqichida yuz berishi mumkin boʻlgan tasodifiy arxeologik topilmalar bilan ishlash uchun ehtiyot chorasi sifatida maxsus tartib-taomil joriy etiladi.

Homiy mahalliy hokimiyat organlari va yaqin atrofdagi aholi bilan keng koʻlamli muloqot olib borgan. Qurilish boshlanishidan oldin mahalliy aholi bilan aloqalar boʻyicha alohida mutaxassis ishga olinadi. U manfaatdor tomonlar bilan oʻzaro hamkorlik rejasini hamda yerlarni olish va tirikchilik manbalarini tiklash rejasini amalga oshirish uchun mas’ul boʻladi. Shuningdek, loyihaning butun amal qilish davrida tashqi manfaatdor tomonlardan kelib tushadigan shikoyatlarni koʻrib chiqadi. Loyiha mahalliy aholi bilan loyihaning foydalari yuzasidan muloqotni davom ettiradi.

Loyihaning ekologik va ijtimoiy harakatlar rejasi homiy bilan kelishilgan. Bank homiyning ekologik va ijtimoiy masalalar boʻyicha hisobotlari hamda kreditorlarning ekologik va ijtimoiy masalalar boʻyicha maslahatchisi taqdim etadigan hisobotlar orqali loyihaning amalga oshirilishini yaqindan kuzatib boradi. Zaruratga qarab bank loyiha hududiga kuzatuv tashriflarini ham amalga oshiradi.

Yashil mezonlar boʻyicha baholash

Parij kelishuviga muvofiqlik

Loyiha YTTBning bevosita investitsiyalarning Parij kelishuviga muvofiqligini baholash metodologiyasiga koʻra, Parij kelishuvining iqlim oʻzgarishini yumshatish va unga moslashish maqsadlariga muvofiqdir.

Loyiha Parij kelishuvining iqlim o‘zgarishini yumshatish maqsadlariga muvofiqdir. U ko‘p tomonlama taraqqiyot banklarining Parij kelishuviga muvofiq deb hisoblangan faoliyatlar bo‘yicha qo‘shma ro‘yxatidagi quyidagi toifaga kiradi: “*Uglerod chiqindilari juda kam bo‘lgan energiya iste’molini oshiradigan energiyani saqlash yoki tarmoq barqarorligi yoxud moslashuvchanligini yaxshilash choralari*”.

Loyiha uchun iqlimning jismoniy ta’sirlari bilan bog‘liq xatarlar baholangan. Ular sezilarli emas yoki yetarli darajada kamaytirilgan deb topilgan. Loyiha iqlim o‘zgarishiga moslashish bo‘yicha milliy siyosatlarga zid kelmaydi va kengroq tizimning iqlim o‘zgarishi ta’sirlariga bardoshliligiga putur yetkazmaydi. Shu sababli u Parij kelishuvining iqlim o‘zgarishiga moslashish maqsadlariga muvofiqdir.

Yashil moliyalashtirish ulushi

YTTB moliyalashtirishining 100 foizi yashil moliyalashtirish sifatida tasniflangan, chunki u iqlim o‘zgarishini yumshatishga hissa qo‘shadigan faoliyatlarni qo‘llab-quvvatlaydi. Ushbu tasnif YTTBning yashil moliyalashtirish metodologiyasiga, xususan “*Uglerod chiqindilari juda kam bo‘lgan energiya iste’molini oshiradigan energiyani saqlash yoki tarmoq barqarorligi yoxud moslashuvchanligini yaxshilash choralari*” mezoniga muvofiq belgilangan.

Texnik hamkorlik va grantlar hisobidan moliyalashtirish

Loyihaning Barqaror rivojlanish bo‘yicha Yevropa jamg‘armasi plyus doirasidagi Hi-Bar kafolat dasturi bo‘yicha Yevropa Ittifoqining oldindan mablag‘ ajratilmaydigan qisman kafolatidan foydalanishi kutilmoqda. Ushbu dastur o‘tish davridagi iqtisodiyotlarda barqaror investitsiyalarni qo‘llab-quvvatlaydi va yashil energetikaga o‘tishga ko‘maklashadi.

Loyihaning, shuningdek, milliy darajada akkreditatsiyadan o‘tgan texnik o‘quv dasturini ishlab chiqishga ko‘maklashish uchun 70 000 yevro miqdoridagi texnik yordamdan foydalanishi kutilmoqda. Ushbu yordam YTTB aksiyadorlarining maxsus jamg‘armasi hisobidan moliyalashtiriladi.

Kompaniya bilan bog‘lanish uchun ma’lumotlar

Pierre-Louis Brigant
pl.brigant@voltalia.com
+33 06 60 97 51 28
https://www.voltalia.com
Fransiya, Parij, 75003, Sébastopol bulvari, 84-uy

Loyiha bo‘yicha qisqacha ma’lumotning oxirgi yangilanish sanasi

2026-yil 9-oktabr

O‘tish davri nima

O‘tish davri ta’sirini baholash bo‘yicha YTTB yondashuvi haqidagi qo‘shimcha ma’lumotni mana bu havoladan olishingiz mumkin.

Loyihalarda ishtirok etish uchun imkoniyatlar

Loyihada yoki xaridlarda ishtirok etish uchun mijoz kompaniyaga murojaat qiling.

YTTB bilan (xaridlarga oid bo‘lmagan masalalarda) hamkorlik qilish uchun quyidagi telefon yoki elektron pochta orqali bog‘laning:
Tel: +44 20 7338 7168
E-manzil: projectenquiries@ebrd.com

Davlat sektoridagi loyihalar uchun YTTB xaridlari sahifasiga o‘ting:
Tel: +44 20 7338 6794
E-manzil: procurement@ebrd.com

Umumiy ma’lumotlar

Aniq so‘rovlar YTTB so‘rovlar shaklidan foydalangan holda berilishi mumkin.

Ekologik va ijtimoiy siyosat (ESP)

YTTB o‘zining “ekologik jihatdan mas’ul va barqaror rivojlantirish” tashabbusini ilgari surishda Ekologik va ijtimoiy siyosat va uning tarkibiy qismi bo‘lgan Ekologik va ijtimoiy talablar (ESR) Bank loyihasini amalda qo‘llash tartibini belgilab beradi. ESP va ESR tegishli milliy qonunchilik doirasida Bank mijozlarining keng jamoatchilikka axborot berishi va maslahatlashishini ta’minlash, shuningdek manfaatdor tomonlarning xavotirlari va shikoyatlarini, ayniqsa, ekologik va ijtimoiy (E&S) muammolarni ko‘rib chiqish va hal qilishga yordam beradigan mexanizmni yaratishdagi aniq talablarni o‘z ichiga oladi. Loyihaning ekologik va ijtimoiy risklarni va ta’sirining mohiyati va ko‘lamidan kelib chiqqan holda, zarurat tug‘ilganda, YTTB o‘z mijozlaridan qo‘shimcha ravishda loyihalarning risklarni va ta’sirlari haqida ma’lumotni oshkor qilishni, shuningdek, manfaatdor tomonlar bilan batafsil fikr almashish va muammolar yuzasidan choralar ko‘rilishini talab qiladi.

Bu sohada YTTBning tajribasi bo‘yicha qo‘shimcha ma’lumotlar ESPning quyidagi sahifasida keltirilgan.

Ish faoliyatidagi halollik va belgilangan me’yorlarga rioya qilish

YTTBning muvofiqlik nazorati boshqarmasi (OCCO) Bankda mas’uliyatli boshqaruvga ko‘maklashish bilan birga Bank faoliyatining barcha jabhalarida eng yuqori standartlarda ish olib borilishini va barcha jarayonlar ilg‘or xalqaro tajribalarga muvofiq bo‘lishini ta’minlaydi. Bankning barcha mijozlari uchun ularning ish faoliyatidagi halolligini tekshirishdan maqsad, Bank loyihalari uchun qabul qilinishi mumkin bo‘lmagan huquqiy va nufuzga oid risklarga yo‘l qo‘yilmaslikdan iborat. YTTB nuqtai nazariga ko‘ra, loyihani dastlabki baholash va

tasdiqlash bosqichida muammoli jihatlarni aniqlash va ularni bartaraf qilish Bank faoliyati nufuziga putur yetkazmaslikning eng samarali vositasidir. OCCO ushbu profilaktika chora-tadbirlarida muhim ahamiyatga egaligi bilan birga investitsiya qilinganidan keyingi davrda Bankning nufuziga xavf soladigan risklarni nazorat qilishga yordam beradi.

OCCO, shuningdek, YTTB tomonidan moliyalashtirilayotgan loyihalar doirasidagi firibgarlik, korrupsiya va lavozimni suiiste'mol qilish bo'yicha ma'lumotni tekshiruvchi mas'ul hisoblanadi. Agar kimningdir Bank ichida yoki undan tashqarida firibgarlik yoki korrupsiya holatlari kuzatilayotganligi haqida gumoni bo'lsa, u muvofiqlik nazorati boshqarmasi boshlig'iga bu holat haqida yozma tarzda compliance@ebrd.com elektron pochta manzili orqali xabar qilishi lozim. OCCO barcha bildirilgan ma'lumotlar yuzasidan tegishli choralarni ko'radi. U barcha bildirilgan ma'lumotlarni ko'rib chiqadi. Bu turdagi xabarlar istalgan tilda, jumladan Bank faoliyat ko'rsatayotgan mamlakatdagi rasmiy tilda tayyorlanishi mumkin. Bunday ma'lumotlar yaxshi niyatni ko'zlashi maqsadga muvofiqdir.

Axborotdan erkin foydalanish siyosati (AIP)

2025-yilning 1-yanvarida kuchga kirgan AIP YTTBning strategiyalari, siyosatlari va amaliyotlarini yaxshiroq tushunish va bilishga ko'maklashish uchun manfaatdor tomonlarga ma'lumotlarni ochiqlash bilan birga maslahatlashuvlar tartibini belgilab beradi. YTTB veb-saytidan qanday ma'lumotlar olish mumkinligini bilish uchun Axborotdan foydalanish siyosati sahifasiga o'ting.

Muayyan savollaringizni YTTBning ma'lumot so'rovi orqali yuborishingiz mumkin.

Loyihalar bilan bog'liq shikoyatlarni ko'rib chiqish mexanizmi (IPAM)

Agar jismoniy yoki yuridik shaxslarning ekologik-ijtimoiy sohadagi yoki axborotni oshkor qilish borasidagi xavotirlarini (masalan, loyiha darajasida mijozlar tomonidan yaratilgan shikoyatlar mexanizmi yoki Bankning amaliyot boshqaruvi bilan bevosita o'zaro aloqa qilish orqali) qanoatlantirishga bo'lgan urinishlari samarasiz bo'lsa, ular YTTBning hisobdorlik mexanizmi ya'ni loyihalar bilan bog'liq shikoyatlarni ko'rib chiqish mexanizmi yordamida (IPAM) o'zlarining o'sha xavotirlarini bildirishlari mumkin.

Loyihalar bilan bog'liq shikoyatlarni ko'rib chiqish mexanizmi (IPAM), arizachilarning fikriga ko'ra, zarar yetkazishga ulgurgan yoki kelajakda zarar yetkazishi mumkin bo'lgan loyihaning muammolarini mustaqil ravishda baholaydi. Ushbu mexanizmning vazifalari quyidagilardan iborat: - ekologik-ijtimoiy va axborotni oshkor etish bo'yicha muammolarni hal qilish uchun loyiha ishtirokchilari o'rtasidagi o'zaro aloqalarni o'rnatish va muloqotlarni olib borish; - Bank tomonidan ishlab chiqilgan **Ekologik va ijtimoiy siyosat** talablariga, shuningdek loyihaga oid tegishli **Axborotdan erkin foydalanish siyosati** qoidalariga rioya qilinishini baholash; - zarurat tug'ilganda, ushbu mezonlarga rioya qilmaslik holatlarini bartaraf etish, kelgusida Bank tomonidan ularni buzish holatlariga nisbatan ko'riladigan choralarini ko'zda tutish.

IPAM va uning vakolatlari haqida batafsil ma'lumot olish, ko'rib chiqilishi kerak bo'ladigan shikoyatlarni jo'natish uchun Loyihalar bilan bog'liq shikoyatlarni ko'rib chiqish mexanizmi vebsaytiga kirishingiz yoki tavsiyalar olish hamda IPAM haqida qo'shimcha ma'lumot olish

va shikoyat jo‘natish uchun ipam@ebrd.com elektron pochta manzili orqali biz bilan bog‘lanishingiz mumkin.

Ushbu matn Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki tomonidan yuqorida ko‘rsatilgan loyiha ID raqami bilan va yuqorida ko‘rsatilgan sanada ingliz tilida e’lon qilingan Loyiha xulosasi hujjatining tarjimasidir. Agar ingliz tilidagi asl nusxaning biror qismi ushbu tarjima matniga mos kelmasa, ingliz tilidagi asl Loyiha xulosasi hujjati ustuvor hisoblanadi.